

**CHORRAHADA SODIR ETILGAN YO'L TRANSPORT HODISASIDA
TRANSPORT VOSITASINING TEXNIK IMKONIYATINI ANIQLASH**

Isoxanov Utkir Ibadullayevich ¹

¹ Toshkent davlat transport universiteti

Shermatov Shamshir Xusanovich ¹

¹ Toshkent davlat transrort universiteti

Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li ¹

¹ Toshkent davlat transrort universiteti

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.10.2024

Revised: 08.10.2024

Accepted: 09.10.2024

Ushbu maqolada transport vositasining haydovchisi chorrahaning svetoforining qaysi ishorasini aniqlash uchun, charroha chegarasidan svetaforning qaysi ishorasida kesib o'tgan masofasi va chorraha chegarasini kesib o'tgandan voqeа joyidan harakatga xavf paydo bo'lган vaqtdagi uzoqlik masofasini taqqoslash orqali xal etilgan.

KALIT SO'ZLAR:


yo'l-transport
hodisalari, chorraha,
svetafor, tezlik,
haydovchi.

KIRISH. O'zbekistonda so'nggi yillarda jadal iqtisodiy o'sish va urbanizatsiya kuzatildi, bu esa mamlakat yo'llarida avtomobillar sonining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Ushbu o'sish infratuzilmaning rivojlanmaganligi va yo'l harakati qoidalariga riosa qilinmasligi bilan birga yo'l harakati qoidalarini buzish va yo'l transport hodisalarning ko'payishiga olib keldi.

Yo'l harakati qatnashchilari tomonidan yo'l harakati qoidalarni buzulish holatlari hozirgi kunda juda ko'p uchramoqda. Bunga sabab yetarlicha haydovchilarining o'zaro madaniyati, e'tiborsizlik, yo'l harakati qoidalariga riosa qilmasligi kabi omillar sabab bo'lmoqda. Shu kabi muammolarni oldini olish va yo'l transport xodisalarni sonini kamaytirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Yo'l-transport hodisalarining sabablari, holatlari va sharoitlarini o'rganish avtomobil yo'llarida yo'l transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda katta

rol o'ynaydi. Har qanday yo'l transport hodisasi o'r ganilganda, uning asosiy sababi yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik bo'lib chiqadi.



1-rasm. 2022-2023-yillarda Toshkent shahrida haydovchilari tomonidan svteofor ishorasiga rioya qilmasdan sodir etilgan yo'l transport hodisalari tahlili

Yo'l transport hodidasini o'r ganishda dastlabki ma'lumotlar hodisa sodir bo'lgan joyda yo'l asfalt, tekis, quriq, gorizontal, kunduzi – YTH hujjatlari.

Neksiya rusumli avtomobilida yo'lovchisiz, yuksiz va texnik soz xolda bo'lgan, o'rtacha 55 km/s tezlikda harakatlanib, chorraha chegarasidan 24,4 metr masofa kirib, Lasetti rusumli avtomobili bilan to'qnashgan.

Matematika amallarini bajarishda quyidagi shartli belgilar qo'llanilgan:

* - kupaytirish; `2 - kvadratga kutarish; / - bo'lish; `0,5- kvadrat ildiz chikarish;

t_1 - Neksiya avtomashinasi haydovchisining reaksiya vaqtি 0,8 s;

t_2 - Neksiya avtomashinasi tormoz tizimining ishga tushishini kechikish vaqtি, 0,1 s;

t_3 - Neksiya avtomashinasi sekinlashish miqdorining kuchayish vaqtি, 0,35 s;

j- Neksiya avtomashinasining sekinlashish miqdori, $7,33 \text{ m/s}^2$;

V_a – Neksiya avtomashinasining harakat tezligi, 55 km/soat;

S_n - Neksiya avtomobilining chorraha chegarasidan to'qnashuv joyigacha bosib o'tganda masofa, 24,4 m;

T_s - sariq chiroq ishorasi yonib turgan vaqt 3 soniya;

T_n -Neksiya avtomobili, Lasetti avtomobiliga sariq chiroq yongandagi to‘qnashuvigacha ketgan vaqt 1,38 soniya.

Yo‘l transport hodisasi sharoitida haydovchi Neksiya rusumli avtomobil haydovchisi chorrahaning qaysi ishorasini aniqlash uchun, Lasetti avtomobil yo‘nalishiga sariq yonganda, Neksiya avtomobili uchun qizil ishora yonadi, Lasetti avtomobili yo‘nalishiga, svetoforning sariq ishorasi yongandan keyin 1,38 soniya o‘tib to‘qnashgan bo‘lsa, neksiya rusumli avtomobil charroha chegarasidan svetaforming qaysi ishorasida kesib o‘tgan masofasi S_n va Neksiya avtomobili chorraha chegarasini kesib o‘tgandan voqeа joyidan harakatga xavf paydo bo‘lgan vaqtdagi uzoqlik masofasi S_a larni taqqoslash orqali xal etiladi.

Neksiya avtomashinasini 1,38 soniya vaqt harakatlanda Neksiya avtomshinasining voqeа joyidan qancha uzoqlikda bo‘lganligi quyidagicha aniqlanadi.

$$S_a = \frac{T_n * V_a}{3,6}$$

Bajarilgan amallar natijasida 55 km/soat tezlikda harakatlangan Neksiya avtomashinasining xodisa joyidan qancha metr uzoqlikda bo‘lganligi 1- jadvalga qaralsin.

1- jadval

$V_{a,k}$ m/s	$S_{n,m}$	$S_{a,m}$	xolat
55	24,4	21,08	sariq ishoraga o‘tgan

Yuqorida bajarilgan amallarning natijalarini taqqoslash $S_n > S_a$ ekanligini ko‘rsatdi.

Demak, ushbu yo‘l hodisasi sharoitida haydovchi boshqaruvidagi Neksiya avtomashinasini svetofor chorraha chegarasini sariq ishorasiga kesib o‘tganligini ko‘rsatdi.

Neksiya rusumli avtomashina yo‘nalishiga svetoforning sariq ishorasi yonganidan so‘ng qizil ishora yonguniga qadar 3 soniya vaqt o‘tsa, taqdim etilgan videolavxaga ko‘ra Neksiya avtomashinasiga sariq ishora yonganida u o‘zi harakatlanib kelayotgan o‘rtacha 55 km/soat tezligi bilan chorraha chegarasidan qancha uzoqlikda bo‘lishini quyidagicha aniqlaymiz;

$$S_a = \frac{T_s * V_a}{3,6}$$

Bajarilgan amallar natijasida 55 km/soat tezlikda harakatlangan Neksiya avtomashinasining xodisa joyidan 45,8 metr uzoqlikda bo‘lar edi.

Demak, ushbu yo‘l xodisasi sharoitida 55 km/soat tezlikda harakatlangan Neksiya avtomashinasining 3 soniya ichida hodisa joyidan 45,8 metr uzoqlikda bo‘lar edi.

Yo‘l hodisasi sharoitida haydovchi Neksiya avtomobilsini to‘xtatib qolish orqali xodisani oldini olib qolish texnik imkoniyatiga ega bo‘lgan yoki ega bo‘lmaganligi avtomobilning to‘xtatib qolish masofasi S_o va uning voqeа joyidan harakatga xavf paydo bo‘lgan vaqtgagi uzoqlik masofasi S_a larni taqqoslash orqali xal etiladi.

Ushbu yo‘l xodisasi sharoitida Neksiya avtomobilsining to‘xtatib qolish masofasi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_o = (t_1 + t_2 + 0,5 * t_3) * V_a / 3,6 + V_a^2 / 25,92 / j$$

O‘tkazilgan amallar natijasida 55 km/soat tezlikda harakatlangan Neksiya avtomobilsining to‘xtatib qolish masofasi tezliklarga mos ravishda aniqlangan xisoblar 2-jadvalga qaralsin.

2- jadval

V_a , km/s	S_a , m	S_o , m	xolat
55	45,8	32,3	chorraha chizig‘iga yetmasdan to‘xtashga ega bo‘lgan

Yuqorida bajarilgan amallarning natijalarini taqqoslash $S_o > S_a$ ekanligini ko‘rsatdi.

Demak, ushbu yo‘l xodisasi sharoitida haydovchi boshqaruvidagi Neksiya avtomashinasi, o‘ziga sariq ishora yonganini ko‘rganida tormozlanish yo‘li bilan o‘z yo‘nalishidagi to‘xtash chizig‘i yetmasdan to‘xtash texnik imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda ushbu yo‘l hodisasi sharoitida haydovchi boshqaruvidagi Neksiya avtomashinasini svetofor chorraha chegarasini sariq ishorasiga kesib o‘tganligini ko‘rsatdi. Ushbu yo‘l xodisasi sharoitida 55 km/soat tezlikda harakatlangan Neksiya avtomashinasining 3 soniya ichida hodisa joyidan 45,8 metr uzoqlikda bo‘lar edi. Neksiya avtomashinasi, o‘ziga sariq ishora yonganini ko‘rganida tormozlanish yo‘li bilan o‘z yo‘nalishidagi to‘xtash chizig‘i yetmasdan to‘xtash texnik imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Foydalilanigan Adabiyotlar:

- Судебная автотехническая экспертиза. Ч.2.-М.1980 г.- 491 с.
- O‘G, J. R. Y. R., O‘G‘Li, A. E. X., & Hamroyevich, T. N. (2021). HAYDOVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI O ‘ZBEKISTON 2030 DASTURINI JORIY ETISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 749-754.

3. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТҲ ТАҲЛИЛИ. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 216-219.

4. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТҲ ТАҲЛИЛИ. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24) 220-222.

5. У Исоханов, С Турдибеков, Э Абдусаматов (2023). ЕНГИЛ АВТОМОБИЛЛАРДА КЎРИНМАС ХУДУД ДА ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ХОДИСАЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY 1(6) 92-95.

6. OI Inoyatovich, AE Xalim o'g'li, TS Qodirovich (2023). AVTOMOBIL YO 'L EKSPERTIZASI BO 'YICHA YA'NI YO 'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.

7. ШК Хакимов, РГ Саматов, СС Ражапова, Да Абдураззакова, Э Абдусаматов, Ш Аbruев (2022). СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПУТЬЮМ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПЕРЕКРЕСТКА. Экономика и социум 9 (100) 715-724.

8. ШХ Шерматов, ШИ Аbruев, ЭХ Абдусаматов, НХ Турсунов, ЖА Чориев (2022). МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГОРЯЧИХ ЗОН ГОРОДСКИХ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ. Экономика и социум 12-1 (103) 1097-1104.